“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Yuridik xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyaning davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’siri

Sanjar Turdiyev,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi
e-mail: sanjarturdiyev044@gmail.com

Аннотация. Mazkur tadqiqot yuridik xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyalashning davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’sirini atroflicha tadqiq qiladi. Unda raqamli transformatsiyaning yuridik xizmatlar sohasidagi xususiy sektor va hukumat o‘rtasidagi hamkorlik natijasida kelib chiqadigan bir qancha afzal taraflari hamda salbiy oqibatlari chuqur tarzda o‘rganilib chiqilgan. Bunda asosan, xavfsizlikdagi holat, yuqori darajadagi samaradorlik, xodim va mijoz o‘rtasidagi munosabatlar jarayoniga ta’siri va rivojlanishdagi asosiy birlamchi bosqich ekanligi yoritilgan. Shunindek, yuridik tahlil qilish orqali raqamli transformatsiyaning davlat-xususiy sherikchilik huquqiga qanchalik ta’siri va o‘rni bor ekanligi qayd etib o‘tilgan. Maqolada, shu bilan birga, kelajakda qilinishi mumkin va lozim bo„lgan mavzular ham alohida berilgan.

Калит сўзлар. юридик хизматлар, рақамли трансформация, давлат-хусусий шерикчилик, блокчаин, смарт контракт, хавфсизлик, техник билим ва кўникмалар

Аннотация. Данное исследование всесторонне исследует влияние цифровой трансформации в сфере юридических услуг на право государственно-частного партнерства. В нем глубоко изучены преимущества и негативные последствия цифровой трансформации, возникающие в результате сотрудничества частного сектора и правительства в сфере юридических услуг. При этом в основном освещается ситуация в сфере безопасности, высокий уровень эффективности, влияние на процесс взаимоотношений между сотрудником и клиентом и то, что это основной первичный этап в развитии. Также посредством юридического анализа было отмечено влияние и роль цифровой трансформации на право государственно-частного партнерства. В статье также отдельно представлены темы, которые могут и должны быть предприняты в будущем.

Ключевые слова. юридические услуги, цифровая трансформация, государственно-частное партнерство, блокчейн, смарт-контракт, безопасность, технические знания и навыки

Annotation. This study examines in detail the impact of digital transformation in the field of legal services on public-private partnership law. It thoroughly examines several advantages and negative consequences of digital transformation arising from cooperation between the private sector and the government in the field of legal services. In this case, it is mainly highlighted that the state of security, high level of efficiency, influence on the process of employee-client relations is the main primary stage in development. Also, through legal analysis, the impact and role of digital transformation on public-private partnership law was noted. The article also separately lists topics that can and should be addressed in the future.

Keywords. legal services, digital transformation, public-private partnership, blockchain, smart contract, security, technical knowledge and skills

Hozirgi kunda zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda tur xil kompaniyalar o‘rtasida ham raqobat anchagina ildamlab ketdi. Bunda anchagina ko‘p holatlarda raqamli transformatsiyalarni o‘z o‘rnida va samarali foydalanganlargina muvaffaqiyat qozonib, boshqa raqobatchilaridan bir qadam ustun bo‘lishini tajribalar shu kungacha ko‘rsatib kelgan. Shu payt barchamizga bir savol tug‘iladi, Raqamli transformatsiya o‘zi nima? Raqamli transformatsiya rivojlanayotgan bozor va mijozlarning talablarini qondirish uchun mavjud an’anaviy va raqamli bo‘lmagan biznes jarayonlari va xizmatlarini o‘zgartirish yoki yangilarini yaratish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayoni bo‘lib, shu bilan biznesni boshqarish va boshqarish usullarini va mijozlarga qiymat yetkazib berishni butunlay o‘zgartiradi. Bu shu ma’noni bildiradiki, agarda raqamli transformatsiyalardan foydalanilib ishni bajarsa, ish anchagina tezroq, sifatliroq va keng ko‘lamda bo‘ladi. Misol uchun, raqamli transformatsiyalar korxonalarga “tayyor yordamchi”, bu orqali kompaniyalar yangi ishchi kuchiga ketadigan sarf-xarajatni anchagina tejab qolishadi. Buni ayniqsa davlat xususiy-sherikchilik huquqiga ta’siri anchagina o‘rinlidir. Keling, davlat-huquqiy sherikchilik huquqi haqida bilib olamiz. Davlat-xususiy sheriklik davlat va/yoki davlat loyihalariga xususiy investitsiyalarni o‘z ichiga olgan munosabatlarni ifodalaydi, jamoat manfaatlariga mos bo‘lgan xususiy loyihalarni birgalikda moliyalashtirish va bunday munosabatlar davlat va xususiy sektor o‘rtasida shakllanadi. Davlat infratuzilmasini qurish, ta’mirlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq xususiy sheriklar yoki boshqa jamoat manfaatlariga mos bo‘lgan va ular bilan bog‘liq tijorat va boshqa loyihalar davlat xizmatlari yoki tijorat davlat xizmatlari uchun qo‘llanadigan shartlar va shartlarda ko‘rsatiladigan faoliyat; yoki ularning ta’minlanishi jamoat manfaatlariga mos keladigan boshqa faoliyat yoki xususiy boshqa investitsiyalar va qisman yoki to‘liq davlat manfaatlariga daxldor bo‘lgan inshootlarni qurishda davlat mablag‘lari ularning ta’minlanishi jamoat manfaatlariga mos keladigan faoliyat2. Endi bizda raqamli transformatsiyalar va davlat

xususiy sherikchiligi haqida yetarlicha ma’lumot bor. “Yuridik xizmatlarda davlat-xususiy sherikchilik” nima degani? Bu davlat yuridik xizmatlarni yanada takomillashtirish, xarajatlarni odatdagidan kamaytirish va ish sifatini oshirish uchun xususiy sektorlar bilan birgalikda o‘zaro hamkor sifatida faoliyat olib borilishi tushuniladi.

Raqamlashtirish jarayonlari tezlashayotgan hozirgi davrda, aynan shuni davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’sirini o‘rganib chiqishning muhimliligi ortib bormoqda. Tadqiqotning asosiy oldiga qo‘ygan maqsadi yuridik xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyaning davlat xususiy-sherikchilik huquqiga ta’sirini o‘rganishdan iboratdir.

Yuqorida aytib o‘tilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Raqamli transformatsiyaning davlat-xususiy sherikchiligida, aynan, yuridik xizmatlar sohasida yaxshi jihatini o‘rganish;

Raqamli transformatsiyaning davlat-xususiy sherikchilik huquqida yuridik xizmatlar sohasida kamchiliklarini o‘rganish;

Tadqiqot so‘nggida biz yuqorida berilgan mavzu bo‘yicha yuridik xizmatlarda raqamli transformatsiyaning davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’siri haqida atroflicha ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Usullar

Ushbu tadqiqot yuridik xizmatlarda raqamli transformatsiyaning davlat -xususiy sherikchilik huquqiga ta’sirini o‘rganish maqsadida huquqiy tahlil yondashuvini qo‘llagan holda olib borildi. Quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlil: Aslini olganda adabiyotlar tahlilini olib borayotganimda aynan shu mavzuga doir tahlillar, ma’lumotlar va, shuningdek, nazariy asoslar topish biroz qiyin bo‘ldi. Bunga “Raqamli transformatsiya”ning hali hamon insoniyat uchun to‘liq odatiy mavzu bo‘lib ulgurmaganini javob sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Lekin iloji boricha mavzuga doir ilmiy maqolalar o‘rganildi. Misol uchun, Google Scholar va HeinOnline kabi online ma’lumot bazalaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida “Digital transformation”, “Public-private partnership law” kabi kalit sovzlar orqali qidiruv amalga oshirib ko‘proq ma’lumot topishga muvaqqat bo‘ldim.

Vaziyat bevosita davlat-xususiy sherikchilik huquqiga bog„liqligini inobatga olib, uni yuridik jihatdan tahlil qilishga kirishsak.

Yuridik tahlil:

Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.3 “Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida yana shunday deyiladi: “**Davlat-xususiy sheriklik** – davlat

sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi”4. Aynan mana shu holat, davlat-xususiy sherikchilik, O‘zbekiston Respublikasida qonun darajasida rasmiylashtirilgani e’tiborga molik. Bunda ikki tomon(davlat hamda Xususiy sektor) bir xil, teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini birgalikda olib boradi. Xususiy sektor davlat sherigi sifatida e’tirof etiladi. **Davlat sherigi** – O‘zbekiston Respublikasi va (yoki) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan boshqa yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari (“Davlat-xususiy sherikchilik” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 3-modda).

Avvalo, davlat va xususiy birlashma o‘zaro sherikchilik asosida hamkorlik olib borsa, adolatlilik, ochiqlilik va bir-birini qo‘llab quvvatlash kabi birlamchi prinsiplarga amal qilishi kerak, bu o‘z navbatida, sherikchilik ravnaqiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, yuridik xizmatlar sohasida, ayni advokatlik faoliyatida, qachonki davlat bilan xususiy advokatlik firmasi yoki byurosi birlashsa undan asosiy talab qilinadigan narsa bu yuqorida tilga olingan prinsiplar. Bir-birini qo„llab quvvatlash prinsipini chuqurroq oladigan bo‘lsak, agarda xususiy sektor moliyaviy yoki ma’naviy zarar ko‘rsa, bunda davlat chetda turmasdan zararning kamida yarmini qoplashni o‘z bo‘yniga olishi kerak. Masalan, barchaga ma’lumki, yuridik xizmatlar sohasida raqamli transfornatsiyalardan foydalanishni nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham ko‘rishimiz mumkin, bir qarashda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Raqamli transformatsiyalarni foydalanish, bo‘lishi mumkin, mijozlarga maslahat berishda, ulardan murojaatlarni tezkor qabul qilishda, mijoz va advokat o‘rtasida turli ko‘rinishdagi “smart kontrakt” ni imzolashda uchraydi. Shu o‘rinda biz “Centil law firm”ni raqamli transformatsiyani O‘zbekistonda yuridik xizmatlar sohasida foydalanayotgan eng mashhur advokatlik firmalaridan biridir. Ular asosan mijozlar bilan masofadan turib gaplashishda, ma’lumotlarni va hujjatlarni ichki va xalqaro talabgorlarga oz muddatida yetkazib berishda samarali foydalanib kelishmoqda.

“Biz mijozlarga texnologiya borasida muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish uchun yuridik xavflar va imkoniyatlarni erta bosqichda aniqlash orqali raqamli faoliyatni amalga oshirishga yordam beramiz. Biz mijozlarga ma’lumotga boy bo‘lgan, ishonchli va samarali qarorlar qabul qilishlari uchun sharoit yaratamiz, ularga o‘zgarishlar orqali aniq yo‘l, tiklanish va o‘sish yo‘nalishini taqdim etamiz. Oddiy qilib aytganda, biz raqamli transformatsiya bilan bog„liq barcha yuridik va tartibga soluvchi maslahatlarni taqdim etishga eng yaxshi tayyorlangan yuridik firmamiz”5 - deydi “Baker Mckenzie”. Bu yuridik firma o‘zining googledagi shaxsiy saytida(bakermckenzie.com). Mckenzie davlat-xususiy sherikchilik asosida yuridik xizmatlarni olib boradigan yuridik firma bo‘lib, bir

qancha rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik oloib boradi, xususan, Qo‘shma shtatlar, Buyuk Britaniya va Yaponiya shular jumlasidandir. Demak biz bemalol, McKenzie yuridik firmasini xalqaro davlat-xusuiy sherikchilik asosida ish olib boradigan va raqamli transformatsiyalardan keng foydalanadigan birlashma deb tilga olishimiz mumkin.

Natijalar

Olib borilgan tadqiqot natijasida yuridik xizmatlarda raqamli transformatsiyaning davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’siri bo‘yicha quyidagi asosiy ma’lumotlar olindi:

O‘zbekistonda raqamli transformatsiyadan foydalanish darajasi

Hozirgi kunda O‘zbekistonda yuridik xizmatlarda davlat-xususiy sherikchiligida raqamli transformatsiyalardan foydalanish darajasi aniq statistikasi hisoblab chiqilmaganligi bois, bundan foydalanish darajasini aniqlash imkoni bo‘lmadi(Aniq statistikasi topilmadi).

Raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va vositalari

Yuridik xizmatlarda eng ko‘p foydalaniladigan raqamli transformatsiyalash vositalari quyidagilar ekanligi aniqlandi:

Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari;

Sun’iy intellekt yordamida huquqiy tahlilni amalga oshirish;

Blockchain texnologiyalari;

Hujjatlarni avtomatlashtirish va boshqarish tizimlari;

Yuridik xizmatlarda raqamli transformatsiylardan davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’siri: Asosiy foydalar.

Bu yerda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishni(CRM) alohida qayd etib o‘tish kerak. CRM tizimining yuridik xizmatlarda davlat-xususiy sherikchiligiga qanday ta’sir qilishi mumkin degan savol tug‘ilishi tabiiy. Keling buni batafsil ko‘rib chiqamiz: **“**Ingliz tilidagi Customer Relationship Management so‘zlarining bosh harflaridan tashkil topgan bu qisqa atama o‘zbek tilida Mijozlar bilan munosabat boshqaruvi, degan ma’noni anglatadi. O‘z nomi aytib turganidek, mijozlar bilan munosabatni boshqaradigan tizim sotuvchi va xaridor, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi, xizmat ko‘rsatuvchi va undan foydalanuvchi o‘rtasidagi har qanday aloqaga oid ma’lumotlarni boshqaradi”6. Bu aslini olganda raqamli transformatsiyalardan foydalanishning ko‘zga ko‘ringan asosiy foydalaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, ko‘rishimiz mumkinki aksariyat yuridik xizmatlardagi davlat bilan birlashgan xususiy sektorlar mijozlarga yuridik jihatdan xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan bo‘ladi va bunda mijozlarga sifatliroq ma’lumot berish uchun ular haqida to‘plangan ma’lumotlardan foydalanish o‘ta muhim. Ayni chog‘da CRM “asosiy yordamchi” vazifasini o‘tashi mumkin.

Sun’iy intellektni ham qaysidir ma’noda raqamlashtirishni amalga oshirishdagi sezilarli foydalardan biri deb aytishimiz mumkin. Chunki, ayrim holatlarda mijozlar soda va umumiy savollar bilan murojaat qilganda tezkor javob qaytirishda sun’iy intellektdan foydalanilsa, boshqa mijozlar tomonidan kelib tushadigan dolzarb, yechimni darhol talab qiladigan masalalar

bilan ishlash uchun ko‘proq vaqt ajratishga imkoniyat bo‘lishi mumkin. Shuningdek, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilishda advokatlar tomonida sun’iy intellektlardan keng foydalanilayotganligi barchamizga sir emas. Bu ish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Chunki bundan foydalanish mutaxassislarning vaqtini, energiyasini va sherikchilik kompaniyasining ortiqcha xarajatdan saqlaydi.

Blokchain texnologiyasi. Smart kontraktlardan foydalanish bu shartnomalarning ikki taraf (mijoz va yuridik firma) o‘rtasida imzolanayotganida, ikki taraf uchun moliyaviy xavfsizlik birdek ta’minlaydi. Misol uchun, yuridik davlat-xususiy sherikchilik firmasi mijozga xizmat ko‘rsatsa “smart contract”lardan foydalanilgan holda xizmat haqi avtomatlashtirilgan holatda to‘lab beriladi.

Yomon ta’sirlari. Hozirgi kunda bir qancha davlat-xususiy sherikchilik asosida birlashgan yuridik tashkilotlar yoki firmalar ko‘payibdiki, garchi ularning raqamli transformatsiyalardan foydalanishi juda kata samara olib kelsada, vaziyatga obyektiv nazar solayotgan tadqiqotchi sifatida aytishimiz mumkinki, uning bir qancha ma’suliyat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladigan muammolari talaygina. Masalan, transformatsiyalash insonlarning ishsizligiga olib kelishi mumkin. Bundan sezishimiz mumkinki, inson qo‘li bilan bajariladigan ishlar oxir-oqibat avtomatlashtirilsa, xodimlar o‘z kundalik daromad topadigan kasbidan ajralishi turgan gap. Shubhasiz, har qanday kompaniya ishlarni xatosiz va tezroq bajaradigan raqamli transformatsiyalarni inson resursidan afzal ko‘radi, sababi, xodimlar uchun beriladigan maoshlarni boshqa maqsadlar uchun, misol sifatida biz kompaniya tomonidan faoliyatini takomillashtirishi va ko‘proq kerakli asbob-uskunalar bilan ta’minlashi aytib o‘tishimiz mumkin. Lekin, vaziyatga boshqa tarafdan qaraydigan bo‘lsak, ishsiz qolgan mutaxassis uchun bu go‘yoki u yuzlanayotgan yirik falokatdek.

Shuningdek, texnik bilimlarning yetishmasligi raqamli transformatsiyaning yanada kengroq joriy qilinishiga asosiy to‘siq bo‘lib turibdi. Biz buni nafaqat O‘zbekistonda, balki rivojlangan davlatlarda ham guvohi bo‘lishimiz mumkin. Agarda sherikchilik tuzilmasida texnik bilim va salohiyatga ega bo‘lgan zamonaviy kadrlar bo‘lmasa, raqamli transformatsiyalardan samarali foydalanish anchagina qiyin yoki imkonsiz. Shu sababli, aynan yuqorida keltirilgan muammolar yuzaga kelmasligi uchun davlat va jamiyat raqamli tranformatsiyalashni amalga oshiradigan mutaxassislarni xalqaro darajada jalb qilish orqali milliy kadrlarni o‘qitish va ularning malakasini oshirishish o‘ta muhim vazifa qilib qo‘yilishi kerak.

Boshqa tarafdan, yuridik xizmatlarda birlashgan davlat-xususiy sherikchilik tuzilmalari o‘rtasida davlat va xususiy sektor shaklida ma’lumotlar almashiniladi. Bu shuni anglatadiki, xususiy yuridik firma davlatning ruxsat etilgan barcha ma’lumotlariga kirish imkoniga ega bo‘ladi, bu davlatning o‘zining sirlari yoki fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari bo‘lishi mumkin. Xususiy

sektorning ma’lumotga ega bo‘lishi, bu ularning istalgan vaqtda shartnoma shartlarini jiddiy tarzda buzib, shaxsiy ma’lumotlarni tarqatib yuborishi mumkinligi asosiy muammo sifatida qarab kelinmoqda. Yana bir muammo, agarda tizim to‘laligicha raqamlashtirilsa, u hakkerlar tomonidan buzib kirilisha va ma’lumotlar sun’iy tarzda sizib chiqartirish holatlarini ko‘rishimiz mumkin. Agarda bu turdagi ma’lumotlar g‘araz maqsadli insonlar qo‘liga tushsa, bu jamiyat va davlat uchun bo‘lajak xavfdir.

Muhokama

Olib borgan tahlilimiz davomida biz bilishimiz mumkinki, yuridik xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyalardan foydalanish davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’siri anchagina, bu odatda yaxshi va yomon jihatlari sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqotning aytilishi kerak bo‘lgan ahamiyati shundaki, zamon shiddat bilan rivojlanar ekan, nafaqat yuridik xizmatlar sohasidagi davlat-xususiy sherikchilik kompaniyalari, balki iqtisodiyot, madaniyat hamda sport sohalarda ham raqamlashtirish dolzarbligicha qolmoqda. Chunki agarda kompaniya ish faoliyatining turidan qat’i nazar to‘laligicha tizmni raqamlashtirsa o‘z-o‘zidan rivonlanish sezadi, qolgan kompaniyalar bilan yetarlicha raqobatlasha oladi.

Tadqiqotning boshqa bir ahamiyati, biz hozir XXI asrda turgan ekanmiz, texnologiya rivojlanib bormoqda, agarda yuridik xizmatlarni amalga oshiruvchi sherikchilik birlashmalari eski an’anaviy usulda qoladigan va ishini shu yo‘sinda davom ettiradigan bo‘lsa yuqorida nomi tilga olingan boshqa sohalardan orqada qolishi turgan gap.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

Yuridik xizmatlarda raqamli transformatsiyalashning samarali usullarini amalga oshirish;

Rivojlangan davlatlar va rivojlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida raqamli transformatsiyaning aynan sud-huquq tizimdagi o‘rni va ta’siri;

Davlatdagi va shuningdek xususiy sektordagi raqamli transformatsiyaning faoliyat jarayoni to‘g‘risidagi qiyosiy tahlil;

Yuridik xizmatlarda aholining raqamli transformatsiyadan qoniqish hosil qilishi borasida statistik va qiyosiy tahlil;

Raqamli transformatsiyalashni davlat-xususiy sherikchilik huquqi sohasidatizimli amalga oshirishda takliflar, muammolar va yechimlar;

XULOSA

Ushbu tadqiqotda biz yuridik xizmatlarda raqamli transformatsiyalashni aynan davlat-xususiy sherikchilik huquqiga ta’sirini atroflicha o‘rganib chiqdik.

Bunda biz ko„rishimiz mumkinki, bu tendensiyaning bir qancha afzallik taraflarini yuqorida natijalar paragrafida ko‘rib, talil qilib o‘tdik. Yaxshi taraflar: mijozlar bilan munosabatlarni olib borishning oson amalga oshirilishi, sun’iy intellektdan ma’lumotlarni tahlil

qilishda, blokchain orqali shartnomalarni zamonaviy va xavfsiz tuzish imkoniyatiga egaligi, hujjatlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirishning osonligi, shular jumlasidandir.

Zararli tandaraflari ham yuqorida qayd etib o‘tilganidek, anchagina jiddiy. 1. Avtomatlashtirish xodimlarning ishsizligiga sabab bo‘lishi mumkinligi; 2. Texnik bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi; 3. Ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xavotirlar.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda texnologiyaning rivoji sababli yuridik xizmatlarda raqamli transformatsiyalash jarayoni jadallashdi. Shu sababli, buning ayni ta’sirlarini davlat-xususiy sherikchiligiga nisbatan ko‘rib chiqdik. Chunki yuqorida tilga olinganidek, davlat bilan o‘zaro ma’lum shartnomalar asosida birlashgan yuridik firmalar qolgan gigant xususiy yuridik sohadagi kompaniyalar va birlashmalardan aholiga ko‘proq va ayni damda sifatliroq xizmat ko‘rsatishning yagona sharti boshqaruv va xizmat ko‘rsatish tizimlarimini raqamli transformatsiyalash orqali tubdan takomillashtirishdan iboratdir.

Adabiyotlar

“

https://ppp.worldbank.org/public-private-